



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th September, 2025

**“2022–2026 YILLARGA MO‘LJALLANGAN YANGI O‘ZBEKISTON
TARAQQIYOT STRATEGIYASI DOIRASIDA DAVLAT BOSHQARUVI
TIZIMIDAGI IQTISODIY ISLOHOTLAR”**

Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi, Akademik hamkorlik
va dasturlarni rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i

E-mail: i.mashrabaliyev@gmail.com

ORCID iD: 0009-0001-9395-1336

Tel.: +998909909984

Annotatsiya:

Ushbu tezisda “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi” doirasida davlat boshqaruvi tizimidagi iqtisodiy islohotlar tahlilini o‘z ichiga oladi. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, soliq va moliyalashtirish siyosatini liberallashtirish, xususiy sektor va investitsiyalarni rag‘batlantirish, hududiy rivojlanish hamda yashil iqtisodiyot kabi yo‘nalishlarda erishilgan natijalar va duch kelinayotgan muammolar o‘rganiladi. Tezis yakunida islohotlarning samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar bildiriladi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, davlat boshqaruvi, iqtisodiy islohotlar, makroiqtisodiy barqarorlik, soliq siyosati.

Аннотация:

Данная тезаис посвящён анализу экономических реформ в системе государственного управления в рамках Стратегии развития «Нового Узбекистана» на 2022–2026 годы. Изучаются направления достижения макроэкономической стабильности, либерализации налогово-финансовой политики, стимулирования частного сектора и инвестиций, регионального развития и “зелёной” экономики. Анализируются достигнутые результаты и существующие проблемы. В заключении представлены рекомендации по повышению эффективности реформ.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th September, 2025

Ключевые слова: Новый Узбекистан, государственное управление, экономические реформы, макроэкономическая стабильность, налоговая политика.

Abstract:

This thesis examines the economic reforms in the state governance system under the “New Uzbekistan” Development Strategy for 2022–2026. It addresses the directions of ensuring macroeconomic stability, liberalizing tax and fiscal policies, promoting the private sector and investment, regional development, and the green economy. The thesis analyzes achieved results and existing challenges. It ends with recommendations on enhancing the efficiency of the reforms.

Keywords: New Uzbekistan, state governance, economic reforms, macroeconomic stability, tax policy.

2022-yil 28-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan PF–60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi farmon mamlakatda keng ko‘lamli islohotlar boshlanganligini belgilab berdi. Ushbu strategiya “Inson – jamiyat – davlat” tamoyiliga asoslanib, davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish, iqtisodiyotni liberallashtirish hamda hududlararo tafovutlarni kamaytirishga qaratilgan ustuvor maqsadlarni shakllantirdi. (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2022).

Farmon bilan birga, Strategiya matni ichida davlat boshqaruvi, moliya-soliq siyosati, raqamli transformatsiya, yashil iqtisodiyot va hududiy taraqqiyot sohalarini qamrab olgan aniq vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalar ijrosi uchun zarur bo‘lgan normativ-huquqiy bazalar (qonunlar, qarorlar, davlat organlari vakolatlarini belgilovchi tartiblar) yangilandi yoki qayta ko‘rib chiqilishi rejalashtirilgan.

Bugungi global iqtisodiy o‘zgarishlar va mintaqaviy raqobat sharoitida davlat boshqaruvi tizimining iqtisodiy islohotlarga mos ravishda takomillashuvi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Strategiya doirasida davlatning iqtisodiy funksiyalarini soddalashtirish, xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash, makroiqtisodiy barqarorlikni



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th September, 2025

ta'minlash hamda hududiy rivojlanish siyosatini optimallashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilanmoqda (Islomov R., 2023).

World Bank Report (2023) hisobotida O'zbekiston iqtisodiyoti so'nggi yillarda barqaror o'sish sur'atlarini namoyish qilayotgani ta'kidlangan. Xususan, mamlakatda iqtisodiy liberallashtirish va davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlar inflyatsiyani nazorat ostida ushlab turish, xususiyl sektorning rivojlanishi va investitsiyalar oqimini rag'batlantirishga yordam bergan. Hisobotda shuningdek, iqtisodiy rivojlanishda mavjud hududiy tafovutlar, qishloq xo'jaligi sektoridagi samaradorlik masalalari va raqamli transformatsiyaning sekinlashishi kabi muammolar ham qayd etilgan (World Bank, 2023).

Tadqiqotimizning quyidagi vazifalari mavjud:

1. Strategiya asosida davlat boshqaruvi tizimida rejalashtirilgan iqtisodiy islohotlarni tahlil qilish.
2. Islohotlarning huquqiy asoslarini o'rganish (farmonlar, qonunlar, qarorlar).
3. Hududiy va sektoral islohotlar bo'yicha amaliy natijalarni tahlil qilish.
4. Davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish.
5. Iqtisodiy o'sish, soliq siyosati, investitsiyalar va moliyalashtirish mexanizmlarining holatini baholash.

Strategiyaning huquqiy asosi bo'lib quyidagi hujjatlar xizmat qiladi:

- **PF-60-sonli Prezident farmoni** (2022-yil 28-yanvar) – strategiyaning rasmiy hujjati sifatida.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **Oliy Majlisga Murojaatnomalari** (2021–2023-yillar) – strategik yo'nalishlar belgilab berilgan.
- Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga oid qaror va farmoyishlari (Vazirlar Mahkamasi, 2022).

Strategiyada davlat boshqaruvi, iqtisodiy islohotlar, moliya va soliq siyosati, raqamli transformatsiya, ekologik barqarorlik va hududiy taraqqiyot bo'yicha 100 dan ortiq aniq vazifalar belgilangan.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th September, 2025

Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasida davlat boshqaruvi quyidagi yo'nalishlar bo'yicha isloh qilinmoqda:

1. **Davlat xizmatlarini raqamlashtirish** – “Elektron hukumat” platformasi kengaytirilmoqda.
2. **Byurokratiyani qisqartirish** – qarorlar qabul qilishda soddalashtirilgan tartiblar joriy etilmoqda.
3. **Mahalliy boshqaruvning mustaqilligini kuchaytirish** – viloyat, tuman va shahar hokimiyatlariga moliyaviy va tashkiliy vakolatlar berilmoqda.
4. **Inson omilini birinchi o'ringa qo'yish** – “Davlat – inson uchun” tamoyili asosida barcha islohotlar yo'naltirilmoqda.

Strategiyaning iqtisodiy yo'nalishlari quyidagicha guruhlanadi:

1. **Makroiqtisodiy barqarorlik** – inflyatsiyani 5% darajasida ushlab turish, budget taqchilligini YAIMning 3% darajasida cheklash.
2. **Soliq siyosati** – QQS stavkasini 15% ga tushirish, soddalashtirilgan soliq tizimlarini joriy etish.
3. **Davlat ishtirokidagi korxonalarni xususiy lashtirish** – ochiq auksionlar orqali davlat mulkini xususiy sektorga o'tkazish.
4. **Investitsiyalarni rag'batlantirish** – soddalashtirilgan ruxsat berish tartiblari, “yagona oyna” tamoyili asosida ish yuritish.

Strategiyada hududiy taraqqiyot va sektorlararo muvozanatga katta e'tibor qaratilgan. Jumladan:

- Kam rivojlangan hududlarga infratuzilma loyihalari, soliq imtiyozlari va investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish orqali hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish maqsadi bor.
- Sanoat sektori, ayniqsa tekstil, farmatsevtika, kimyo va qurilish tarmoqlari kabi sohalarda klasterlar yaratish va kengaytirish rejalashtirilgan.
- Qishloq xo'jaligi sohasida yer munosabatlarini takomillashtirish, fermerlar uchun kredit va subsidiya mexanizmlarini yaxshilash, agrar ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish strategik yo'nalish hisoblanadi.
- Yashil iqtisodiyot: atrof-muhitni muhofaza qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, energiya samaradorligi va ifloslanishni kamaytirish kabi



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th September, 2025

ekologik barqarorlik elementlari Strategiyaning muhim komponenti sifatida belgilangan.

Davlat boshqaruvi tizimining jihatlari va iqtisodiy islohot yo‘nalishlari. Farmon asosida davlat boshqaruvi tizimi bir necha yo‘nalishda isloh qilinmoqda:

1. Raqamlashtirish va davlat xizmatlarini soddalashtirish: Elektron hukumat platformasini kengaytirish, davlat xizmatlarining onlayn va avtomatlashtirilgan shakllarini joriy etish orqali byurokraziyani kamaytirish ko‘zda tutilgan.
2. Byurokratik jarayonlar va vakolat taqsimoti: Qaror qabul qilish tartiblarining soddalashtirilishi, normativ-huquqiy hujjatlar majmualarining muvofiqlashtirilishi, shuningdek mahalliy hokimliklar va davlat organlarining vakolatlarining aniqligi va mustaqilligi kuchaytirilishi rejalashtirilgan.
3. Inson markaziyligi (“Davlat – inson uchun” tamoyili): Fuqarolarning huquqiy va iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, xizmatlar sifatining oshirilishi, ijtimoiy adolat va tenglik prinsiplariga rioya qilinishi strategiyaning asosiy printsiplari sifatida belgilangan.
4. Makroiqtisodiy barqarorlik: Strategiya doirasida inflyatsiya darajasini nazorat qilish, byudjet taqchilligini kamaytirish va davlat qarzini bardavom darajada ushlab turish zarurati qayd etilgan.
5. Soliq va moliyalashtirish siyosati: Soliq yukini optimallashtirish, soliq stavkalarini, jumladan QQS stavkasini o‘zgartirish, soliq ma‘muriyati va nazoratini yaxshilash lozimligi urg‘u berilgan.
6. Xususiy sektor va investitsiyalar: Xususiylashtirish jarayonlarini oshirish, investitsion muhitni yaxshilash, “yagona oyna” tamoyili va soddalashtirilgan ruxsatnoma tartiblari joriy etish ko‘zda tutiladi.

Bugungi kunga qadar erishilgan natijalar va unda uchraydigan muammolarni ko‘rib chiqsak:

Ijobiy natijalar:

- YAIM o‘sishi 2022-yilda 5,7%, 2023-yilda 6,1% bo‘lgan.
- Sanoat va xizmatlar sektorida yalpi ishlab chiqarish hajmi sezilarli oshgan.
- 500 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratilgan.
- 100 dan ortiq davlat korxonasi xususiylashtirilgan.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th September, 2025

Muammolar:

- Ba'zi qonun hujjatlari o'zaro moslashmagan.
- Mahalliy darajada kadrlar malakasi yetarli emas.
- Investitsion muhitda barqarorlikni ta'minlashda ayrim kechikishlar mavjud.
- Raqamlashtirish sur'atlari hududlar kesimida teng emas.

“2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi” doirasidagi iqtisodiy natijalar

T/r	Yil	Ko'rsatkichlar nomi	O'sish darajasi
1	2022	YAIM o'sishi	5,7 %
2	2023	YAIM hajmi	1,06–1,07 kvadrillion so'm
3	2023	YAIM o'sish darajasi	Taxminan 6,0 %
4	2023	Sanoat sektori o'sishi	6,0 %
5	2023	Qishloq xo'jaligi sektori o'sishi	4,1 %

Manba: Kun.uz, PLASTEX.UZ saytidan olinga ma'lumotlar asosida muallif ishi.

Har qancha yutuqlar bo'lmasin, islohotlar jarayonida bir qancha muammolar sezilmoqda:

- Normativ-huquqiy moslashuv va uyg'unlik: Farmon, qaror va qonunlar orasida ba'zan fikr va maqsadlar uyg'un emasligi, javobgarlik va vakolatlarning noaniqligi mavjud.
- Kadr salohiyati va manbalarning yetarli bo'lmasligi: Mahalliy boshqaruv organlari va iqtisodiy sektorlarda malakali kadrlar tanqisligi, metodologik va boshqaruv salohiyatini oshirish zarurati.
- Investitsion muhitda barqarorlik: Turli tashqi omillar (global inflyatsiya, valyuta kursi tebranishlari, bojxona va tovarlar narxining oshishi) investitsiyalar oqimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
- Hududiy tengsizlik va resurslar taqsimoti: Rivojlangan hududlar bilan rivojlanayotgan tumanlar orasida infratuzilma va moliyaviy resurslar taqsimotida tafovutlar saqlanib qolmoqda.
- Monitoring va baholash tizimining yetishmasligi: Maqsadlarga erishish darajasini o'lchash uchun indikatorlar va ma'lumotlar bazasi yetarlicha rivojlangan emas, shaffoflik va hisobotlik talab qilinadi.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th September, 2025

Xulosa, Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi davlat boshqaruvini zamonaviylashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish yo'lida muhim bosqich bo'lib xizmat qilmoqda. Islohotlarning izchil va kompleks amalga oshirilishi orqali mamlakatda barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish imkoniyati kuchaymoqda. Biroq, bu yo'lda mavjud muammolar tizimli yondashuvni, aniq indikatorlarga asoslangan monitoringni va doimiy takomillashtirish mexanizmlarini talab qiladi. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi davlat boshqaruvi tizimidagi iqtisodiy islohotlar uchun asosiy huquqiy va institutsional poydevor rolini o'ynaydi. Strategiya doirasidagi islohotlar orqali makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish, xususiy sektorning faolligi, investitsiyalar tushimi va hududiy taraqqiyot darajasida sezilarli natijalarga erishilmoqda. Biroq, muvaffaqiyatga erishish uchun normativ bazalarni takomillashtirish, kadrlar salohiyatini oshirish va monitoring tizimini kuchaytirish zarurati katta ahamiyat kasb etadi. To'liq va samarali amalga oshirilgan taqdirda, Strategiya O'zbekistonning yaqin yillarda barqaror iqtisodiy, ijtimoiy va boshqaruv tizimlarining modernizatsiyasini kafolatlaydi.

Mavzu doirasida xulosadan kelib chiqib, quyidagicha takliflar berish mumkin:

1. Strategiyaning amalga oshirish monitoringi uchun mustaqil baholash tizimini joriy etish.
2. Mahalliy boshqaruv organlarining malakasini oshirish va resurslar bilan ta'minlash.
3. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini kengaytirish.
4. Raqamli iqtisodiyotga o'tish sur'atlarini tezlashtirish.
5. Soliq va bojxona islohotlarini hududiy ehtiyojlarga moslashtirish.

Strategiyaning samarali amalga oshirishni yuqoriga ko'tarish uchun quyidagi takliflar ilmiy asosda muhim:

6. Davlat boshqaruvi organlarida metodologik, moliyaviy va tashkiliy jihatdan mustahkam monitoring va baholash (evaluation) tizimlarini joriy etish, indikatorlar asosida natijalarni o'lchash.
7. Qonun hujjatlarini yagona sistema asosida modullash va normativ-huquqiy bazani interaktiv tarzda solidlashtirish, ortiqcha talab va tartiblar eliminatsiya qilinishi.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th September, 2025

8. Mahalliy hokimlik, sektor rahbarlari va iqtisodiy modelchilarning malakasini oshirish, xalqaro tajribalarni o'rganish.
9. Investitsiyalarni jalb qilishda barqarorlik yo'lida davlat siyosatini oldindan prognoz qilish, soliq va bojxona imtiyozlarini hududiy imkoniyatlar bilan muvofiqlashtirish.
10. Yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan guruhlar uchun ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-60-son, 2022-yil 28-yanvar. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomalari, 2021-2023-yillar.
3. Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlari (2022-2024). Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bo'yicha rasmiy hujjatlar.
4. Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari, 2022-2023.
5. Kun.uz. "O'zbekiston iqtisodiyoti 2022-yilda 5,7% ga o'sgani haqida", 2023.
6. PLASTEX.UZ. "2023-yil iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili", 2024.
7. UzDaily.uz. "Xizmatlar sektori o'sishi va uning iqtisodiyotdagi roli", 2024.
8. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot yo'lidagi strategik vazifalar", Toshkent, 2022.
9. Islomov, R. (2023). "Hududiy rivojlanish va iqtisodiy barqarorlik muammolari". Iqtisodiyot va Siyosat jurnal, 8(2), 120-135.
10. World Bank Report (2023). Uzbekistan Economic Update: Progress and Challenges.